



# Raqs LAMI



Gazeta  
2020-yildan  
chiqa  
boshlagan.

2026-YIL – MAHALLANI RIVOJLANTIRISH VA JAMIYATNI YUKSALTIRISH YILI

## ALISHER NAVOIY – TURKIY DUNYONING VIJDONI

Buyuk shoir va mutafakkir, atoqli davlat va jamoat arbobi Hazrat Alisher Navoiyning bebaho ijodiy-ilmiy merosi nafaqat xalqimiz, balki jahon adabiyoti tarixida, milliy madaniyatimiz va adabiy-estetik tafakkurimiz rivojida muhim o'rin tutadi. Ulug' shoir o'zining bayozlarida yuksak umuminsoniy g'oyalarni, ona tilimizning beqiyos so'z boyligi va cheksiz ifoda imkoniyatlarini butun jozibasini bilan namoyon etib, yer yuzidagi millionlab kitobxonlar qalbidan munosib o'rin egallagan.

Yaqinda Chimkent shahar o'zbek drama teatrida g'azal mulkining sultoni Mir Alisher Navoiy tavalludining 585 yilligi munosabati bilan "Navoiyxonlik – 2026" xalqaro olimpiadasi o'tkazildi.

Qozog'iston Xalq assambleyasi, Qozog'iston o'zbeklari etnomadaniy birlashmalari "Do'stlik" hamjamiyati, Chimkent shahar o'zbek etnomadaniyat birlashmasi, Janubiy Qozog'iston davlat pedagogika universiteti va O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi bilan

hamkorlikda tashkil etilgan mazkur tanlovda o'zbek va qozoq yoshlari uchun shart – Navoiy g'azallarini ifodali yoddan o'qish, "Xamsa" asari asosida sahna ko'rinishini namoyish etish hamda buyuk mutafakkir hayoti va ijodi bo'yicha savollarga javob berish orqali o'z bilim va iste'doqlarini namoyish etishdi.

Hakamlar hay'ati a'zosi sifatida pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori Shahlo Noraliyeva, Qozog'iston Xalq assambleyasining O'zbekistondagi do'stlik elchisi Hulkar Hamroyeva, J.Tashenev nomli universitet katta o'qituvchisi Ozoda Musayeva tanlov ishtirokchilarining chiqishlarini xolisona baholab bordilar.

Tadbirning ochilish qismida nutq so'zlagan Qozog'iston o'zbeklari etnomadaniy birlashmalari "Do'stlik" hamjamiyati raisi Abdulla Ismatullayev Navoiyning

adabiy merosi, uning asarlari hamon xalqlarni, millatlarni do'stlashtirishda alohida o'rin tutayotganini qayd etdi.

— Yosh avlod Navoiy, Abay kabi mutafakkirlarning hikmatlarini o'qib ulg'aysa, albatta, bu ma'naviy kamolotga xizmat qiladi, - dedi u. — Hozir ikki qardosh o'lka – Qozog'iston va O'zbekiston munosabatlari yangi bosqichda. Ushbu tadbir yosh avlodning madaniy va ma'naviy yuksalishiga, mam-lakatlarimizning munosabatlari ijobiy ta'sir ko'rsatishiga ishonchimiz komil.

Anjuman doirasida teatr aktyorlari ijrosida "Husayn Boyqaro va Alisher Navoiy" spektaklidan parcha va san'atkorlarning kuy-qo'shiqlari tadbirga yanada fayz bag'ishladi.

— Hazrat Navoiy fors tili ustun bo'lib turgan bir paytda turkiy tilda ijod qilib, adabiy tilimizga asos soldi, - dedi hakamlar hay'ati a'zosi, filologiya fan-

lari doktori, professor Hulkar Hamroyeva. — Qozog'istonda tashkil etilgan "Ona tilim – jonu dilim", ayniqsa, "Navoiy o'qishlari" tanlovlari o'zgacha muhitda o'tkazildi. Bu bilan Qozog'iston o'zbeklari har qancha faxrlansa, arziydi.

Tanlov yakunlariga ko'ra, maktab o'quvchilari o'rtasida 1-o'rinni Samarqand viloyati, Kattaqo'rg'on tumanidagi 17-maktabning 8-sinf o'quvchisi Binafsha Bozorova qo'lga kiritgan bo'lsa, talabalar o'rtasida O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasining 4-kurs talabasi Jamshidbek Mirsoliyev g'olib deb topildi. Shuningdek, qolgan ishtirokchilar ham turli nominatsiyalarda e'tirof etildi.

G'oliblar sertifikat, pul mukofotlari va esdalik sovg'alari bilan taqdirlandilar. Shuningdek, tadbirda "Vatandoshlar" jamoat fondi vakillari ham ishtirok etib, Qozog'istondagi o'zbek maktablari uchun yangi kitoblar, o'quv-qo'llanmalari hamda o'zbek milliy cholg'u asboblari hadda hadda taqdim etishdi.

**Iroda Ahmadova,**  
"San'atshunoslik" ta'lim yo'nalishi  
1-kurs talabasi

## ANDIJON FARZANDI – ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR

**"Zahiriddin Muhammad Bobur nafaqat bizning, balki butun dunyoning faxri. Uning "Boburnoma" asari o'z davrining chinakam ensiklopediyasidir. Biz bu merosni dunyoga qanchalik keng yoyishimiz, o'zligimizning shunchalik baland ko'targanimizdir."**

Shavkat Mirziyoyev

Bobur merosi bugungi kunda Andijon va Lahor kabi shaharlar o'rtasida madaniy va ma'naviy ko'priklar vazifasini o'tamoqda. Uning hayot yo'li va asarlari yosh avlodni vatanparvarlik va milliy qadriyatlarga hur-

mat ruhida tarbiyalashda muhim omil sifatida ko'riladi. Bobur – o'z yurtini qanchalik sevganini, undan uzoqda bo'lsa-da, bir umr sog'inib yashaganini uning asarlarida ko'rish mumkin. Bu esa yoshlarda sadoqat tuyg'usini uyg'otadi. Bobur – ham sarkarda, ham podshoh, ham olim va ijodkor bo'lgan noyob shaxs edi. Uning o'z ustida ishlashi, og'ir vaziyatlarda ham tushkunlikka tushmay yo'l topishi bugungi kun rahbarlari va yoshlari uchun haqiqiy o'rnak sohibi hisoblanadi. U Hindistonda turli din va millat vakillari orasida hamjihatlik o'rnatadi. U barpo etgan tizim adolatli jamiyat va o'sha davrning eng kuchli iqtisodiyotini yaratishga xizmat qilgan. Uning madaniy va me'moriy merosi shunda ediki, Bobur tabiatni sevuvchi shaxs sifatida Hindiston va Afg'onistonda ko'plab "Chorbog'" uslubidagi "Bog'i Bobur", "Shanilar Gardens" kabilarga asos solgan. Bobur qayerga bormasin kutubxonaga qurgan, bog'lar barpo etgan, ilm ahlini qo'llab-quvvatlagan. Bu – taraqqiyotning yagona yo'li ilm-fanda ekanining isbotidir.

Bobur kitob yozish va uni bezash san'atiga homiylik qilgan. Uning o'z yangi

– "Xatti Boburiy" alifbosini ixtiro qilgani bu sohada eng oliy homiylik namunasidir. U mohir xattotlarni rag'batlantirib, nodir qo'lyozmalarning nusxalarini ko'paytirishga sharoit yaratdi. Boburni o'zi shoir bo'lganligi sababli so'z qadrini baland tutgan. Uning atrofi-da o'z davrining eng yetuk shoirlari to'plangan. Bobur o'z ijodkorlariga nafaqat boyluk, balki "erk" bergan – ular podshoh bilan erkin bahslashgan. Bobur merosi tufayli bugungi kunda san'atshunoslar uni "Temuriylar renessansini Hindistonda davom ettirgan buyuk homiy" deb e'tirof etishadi.

2025-yil aprel oyida Prezident Shavkat Mirziyoyev Andijonga tashrifi chog'ida qurilayotgan "Yangi Andijon" shaharchasiga buyuk ajdodimiz sharafiga "Bobur shahri" deb nom berishni taklif qilgan edilar. Bu shahar Navoiy shahri kabi tariximiz va ke-lajagimizning bog'lovchi ma'naviy ko'priklar



milliy qadriyatlarini mujassam etgan zamonaviy maskan bo'lishi rejalashtirilgan. Ushbu shahar zamonaviy texnologiyalar qo'llangan holda barpo etilmoqda. U yangi turizm, madaniyat va sanoat markaziga aylanadi. Hududdagi bog'ning eng baland nuqtasiga Zahiriddin Muhammad Boburning yangi, muhtasham haykali o'rnatilishi ko'zda tutilgan. Andijon shahri 2026-yil "Turkiy dunyoning madaniyat poytaxti"

## ANDIJON FARZANDI – ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR

deb e'lon qilindi. Bu maqom doirasida Bobur shahrida xalqaro miqyosdagi festivallar va madaniy anjumanlar o'tkazilishi kutilmoqda. Aholi zich joylashgan ushbu hududda yangi shahar bunyod etilishi minglab oilalarni uy-joy va ish bilan ta'minlash barobarida, Bobur merosini asrab-avaylashga xizmat qiladi. Ushbu shahar milliy qadriyatlarini zamonaviy dunyo bilan birlashtiruvchi, yoshlar uchun "parvoz maydoni" bo'lib xizmat qilishi belgilangan. Prezidentimiz 2025-yilda Andijondagi yangi massivga "Bobur shahri" deb nom berar ekan, shunday degan edi: "Bu shahar shunchaki binolar majmuasi emas, u Bobur Mirzo ruhiga munosib, ilm-fan, madaniyat va taraqqiyot markazi bo'lishi kerak. Andijon farzandi o'z ajdodining nomi bilan atalgan ko'chada yurar ekan, qalbida g'urur va mas'uliyatni his qilsin."

Bobur Mirzoning Vatan sog'inchida o'tgan armonlariga javoban, uning nomi o'z ona yurtida eng zamonaviy shahar sifatida abadiylashtirilmoqda. Bobur merosida ilm-fan va bunyodkorlik qanchalik ustuvor bo'lgan bo'lsa, Bobur shahri ham bugungi va kelajak yoshlari uchun intellektual rivojlanish va yuqori texnologiyalar markazi bo'lib xizmat qiladi. Agar Boburning asarlari bizning ma'naviy pasportimiz bo'lsa, Bobur shahri – yangi renessans poydevorini qurayotgan avlodning bunyodkorlik hisobotidir. Bu merosni o'rganish va shaharni asrab-avaylash orqali biz o'z tariximizdan kuch olib, dunyo bilan tenglashishga qodir ekanligimizni isbotlaymiz.

**Begzod Turmamatov,**  
"San'atshunoslik" ta'lim yo'nalishi  
3-kurs talabasi



2



## O'ZBEK MILLIY RAQS SAN'ATINING ZAMONAVIY RIVOJLANISHIDA — ERKAKLAR RAQSINING O'RNI

Bugungi globallashuv jarayonida milliy madaniyat va san'atni asrab-avaylash, uni zamon talablari asosida rivojlantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Har bir xalq o'zining tarixiy merosi, urf-odatlar va san'ati orqali taniladi. Shu jihatdan olganda, o'zbek milliy raqs san'ati xalqimizning ko'p asrlik madaniy boyligini o'zida mujassam etgan noyob san'at turlaridan biridir. Ayniqsa, erkak raqqoslar ijrosidagi milliy raqs kuch, jasorat, matonat va g'ururni ifodalashi bilan alohida ajralib turadi. Bugungi kunda raqqos yigitlar milliy raqs san'atining nafaqat saqlanib qolishida, balki uning zamonaviy rivojida ham muhim o'rin egallamoqda. Ular an'anaviy raqs harakatlarini zamonaviy sahna talablari bilan uyg'unlashtirib, tomoshabinlarga yangicha ruh va mazmun taqdim etmoqda. Ushbu maqolada raqqos yigitlarning milliy raqs san'atidagi o'rni, ularning ijodiy faoliyati hamda yosh avlod tarbiyasidagi ahamiyati yoritiladi.

O'zbek milliy raqs xalqning turmush tarzi, mehnat faoliyati va marosimlari bilan chambarchas bog'liq holda shakllangan. Qadimiy davrlarda erkaklar raqsi asosan bayramlar, tantanalar va marosimlarda ijro etilgan bo'lib, unda jasorat, mardlik va jismoniy kuch namoyon bo'lgan. Har bir hududning erkaklar raqsi o'ziga xos harakatlari, ritmi va ifoda uslubi bilan ajralib turadi. Tarixiy manbalarda erkak raqsining jangovar harakatlar, ov jarayonlari va mehnat faoliyati bilan bog'liq elementlarni o'z ichiga olgani qayd etilgan. Bu raqs orqali erkakning kuchi, chaqqonligi va irodasi ifodalangan. Vaqt o'tishi bilan ushbu harakatlar sahna san'atiga moslashtirilib, badiiy shaklga ega bo'lgan.

Erkak raqqos uchun jismoniy tayyorgarlik muhim ahamiyatga ega. Milliy raqs murakkab va aniq

harakatlarni talab qiladi. Oyoq harakatlarning tezligi, qo'l va yelka harakatlarning uyg'unligi, sahnadagi muvozanat raqqosning jismoniy tayyorgarligiga bog'liq. Shu sababli raqqos yigitlar doimiy mashg'ulotlar orqali o'z jismoniy holatini mustahkamlab boradi. Bundan tashqari, ruhiy tayyorgarlik ham muhim hisoblanadi. Sahna — bu nafaqat harakat, balki hissiyotlar maydoni hamdir. Raqqos sahnaga chiqqanida tomoshabin bilan ruhiy aloqa o'rnatishi, raqs mazmunini his qildirishi lozim. Ichki ishonch, sahna madaniyati va obrazga kirish raqqos ijrosining muvaffaqiyatini belgilaydi.

Yuksak natijalarga erishish uchun raqqos yigitlar muntazam va tizimli mashg'ulotlar olib boradi. Mashg'ulotlar jarayonida har bir harakat alohida o'rganilib, mukammallikka yetkaziladi. Ritmni chuqur his qilish, musiqa-ga mos harakat qilish va sahna plastikasini rivojlantirish mashg'ulotlarning asosiy yo'nalishlarini tashkil etadi. Professional raqqoslar o'z ustida doimiy ishlaydi, yangi harakat va uslublarni o'rganadi. Ustoz-shogird an'anasi orqali tajriba almashinuvini amalga oshiriladi. Bu esa milliy raqs san'atining uzluksiz rivojlanishini ta'minlaydi.

Bugungi kunda raqqos yigitlar milliy raqs harakatlarni zamonaviy sahna unsurlari bilan uyg'unlashtirib, yangi ijodiy yechimlar yaratmoqda. Zamonaviy musiqa, sahna bezagi va yorug'-

lik effektlari milliy raqs bilan uyg'unlashib, tomoshabinga yangicha taassurot bag'ishlamoqda. Bu jarayon milliy raqs san'atining yoshlar orasida ommalashishiga xizmat qiladi. An'anaviy harakatlar saqlangan holda, zamonaviy ifoda usullarining qo'llanilishi raqs san'atining zamon bilan hamnafas bo'lishini ta'minlaydi.

So'nggi yillarda yigitlar raqs bilan turli xalqaro festival va tanlovlarda muvaffaqiyatli ishtirok etib kelmoqda. Ularning chiqishlari xorijiy tomoshabinlarda katta qiziqish uyg'otib, milliy san'atimizga bo'lgan e'tiborni oshirmoqda. Bu esa o'zbek milliy raqs san'atining jahon miqyosida tanilishiga xizmat qiladi. Xalqaro sahnalarda ijro etilayotgan milliy raqs xalqimizning boy madaniy merosini targ'ib qilishda muhim vosita bo'lib xizmat qilmoqda.

**Azizbek Akramov,**  
"San'atshunoslik" ta'lim yo'nalishi  
1-kurs talabasi



# RAQS SAN'ATIDA MUSIQANING O'RNI

Raqssan'ati boy davriy rivoj yo'lini bosib o'tib, turdosh san'at turlari bilan birgalikda sinkretik ravishda rivojlanib kelgan. Raqslar o'tgan avlodlarimiz hayotida doimiy hamroh bo'lib, insonning mehnat jarayonlarida birga bo'ldi, xalqning musiqa va raqsdan zavqlanishi, ma'naviy ozuqa olishida eng zaruriy jabha bo'ldi. Inson o'zining evolyusiyasida san'atning musiqa, raqs, tasviriy san'at va teatr san'atlaridan ham bahramand bo'lgan va ularni mehnat jarayonlari bilan bog'lagan. Raqslar san'ati o'zida xalqning ruhini, urf-odatlarini, aqida va qadriyatlarini namoyon etadi. U san'atning boshqa turlari kabi insonning estetik olamini va borlig'ini o'rganishning badiiy usulidir. Qadimiy davrlardan raqslar insonning hayot tarzi, maishiy turmushi va mehnat faoliyatini aks etish, insonning tabiatdan olgan hissiyotlari, tasavvurlarini yuzaga keltirish jarayonida paydo bo'ldi. Raqslar o'z rivojida dastavval so'z, musiqa va qo'shiq bilan sinkretik chambarchas holda rivoj topdi, keyinchalik o'zgarib va yangilanib bordi va mustaqil san'at turiga aylanib bordi. Raqslar san'ati doimiy ravishda o'zgarib boruvchi, doimiy harakatdagi san'atdir. Xalq raqslarida milliy o'ziga xoslik, urf-odatlar, xalqning dunyoqarashi, badiiy tafakkuri, milliy ruhi o'z ifodasini topadi. O'zbek milliy raqs san'ati namunalarini hozirgi kunda ham o'zining badiiy estetik ahamiyatini saqlab kelmoqda. Raqslar san'atini musiqasiz tasavvur etish qiyin, musiqa jo'rligida raqsning mazmuni ochib beriladi. 138 Raqslar san'atida badiiy obraz plastik harakat, ritmik aniqlik va inson tanasining ifodaviy holati orqali yoritiladi. Musiqa san'ati bilan bevosita bog'liq bo'lgan raqs xoreografik kompozitsiyalar, harakat va turli figuralar aksida emotsional - qiyofalik mazmunga ega bo'ladi. Raqslar musiqasi raqs jo'rligi uchun mo'ljallangan cholg'u musiqasi bo'lib, ma'lum raqs uchun mos bo'lgan raqs harakatlarida namoyon bo'ladi. Har bir raqs musiqasi asosida unga xos bo'lgan ketma - ket, uzluksiz va o'zgaruvchan ritmik izchillik yotadi. Turli raqslar uchun yaratilayotgan rang - barang usul va kuylar hamisha raqsning asosiy ritmik formulasi bilan hamohang bo'ladi. Xalq maishiy hayotida raqs musiqasining vokal, ko'p hollarda xor uchun mo'ljallan-

gan, cholg'u jo'rligida yoki jo'rsiz bo'lgan turlari keng miqyosda tarqalgan. Ba'zida, raqsning cholg'u jo'rligi urma cholg'ular bilan cheklangan bo'ladi. Pantomima bilan bog'liq raqslarda musiqa tasviriy xarakterga ega bo'lsa, keng va umumlashgan shakllarda raqs musiqasidagi tasviriy boshchilik teatr tomoshalari bilan bog'liqdir. Shuningdek raqs musiqasining konsertli turlari ham mavjud (konsert polonezlari, vals va h.). Raqslar insonni butun hayoti davrida unga hamroh bo'ladi. Xalq raqs va davra o'yinlarida insonning turli ruhiy holatlari bo'lmish shodlik va qayg'u, muhabbat hamda ko'tarinki kayfiyat o'z ifodasini topdi. Bunday raqslar hamisha musiqa jo'rligida bo'lib, raqslarning harakati va ifodaviy vositalarni yanada kuchaytirishga zamin yaratadi. Keyinchalik bunday sodda xalq kuylari va raqslari asosida kompozitorlar ijodida amaliy ahamiyatga ega bo'lgan turli raqs musiqasi janrlari shakllanib keldi. Ular ichida ma'lum raqsning nomi bilan atalgan kichik cholg'u asarlarni ham ko'rish mumkin. Raqslar musiqasining muhim jihatlardan biri ma'lum ritmik formula asosida takrorlanadigan ritmik aniqlikdir. Shuningdek, raqsning ma'lum nafaqat raqs va raqs bo'lmagan musiqani, balki, valsni polka raqsidan, mazurkani lezginka raqsidan ajratish mumkin. Raqslarning ritmik - musiqiy jo'rligi raqsosni

nafaqat bir harakatda jamlaydi, balki katta emotsional ta'sir etish kuchiga ham ega bo'ladi. Ba'zi Sharq va Afrika xalqlari, AQSH hindulari raqslari ko'pincha faqat urma cholg'ular jo'rligi bilan

siqasining ritmlari bir necha klassik simfoniyalarning musiqiy mavzulariga asos bo'ldi hamda sonata, cholg'u va vokal asarlari shakllanishiga turtki bo'ldi. Xalq raqs musiqasining ritmlari, ohang va musiqiy shakllari milliy maktablar uchun 139 muhim manba o'rnida xizmat qilib keldi. Badiiy qayta ishlovlar va mustaqil asarlar sifatida " milliy raqs bir qator kompozitorlar ijodidan ham o'rin oldi. M.Glinka, F.Shopen, E.Grig, F.Shubert, F.Shopen, P.I.Chaykovskiy. A.Glazunov kabi ko'plab kompozitorlar ijodida raqs janrlari mohirona talqin etilgan. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, raqs musiqasining amaliy ahamiyati turlidir. Musiqa jo'rligida turli sharoitlarda raqs tushish mumkin, xordiq uchun tinglash mumkin. Raqslar san'ati inson hayotini va butun olamni o'rganishning badiiy usulidir. O'zbek xalqin-

**“RAQS SAN'ATI DOIMIY RAVISHDA O'ZGARIB BORUVCHI, DOIMIY HARAKATDAGI SAN'ATDIR.”**



**“RAQS O'Z RIVOJIDA DASTAVVAL SO'Z, MUSIQA VA QO'SHIQ BILAN SINKRETIK CHAMBARCHAS HOLDA RIVOJ TOPDI... VA MUSTAQIL SAN'AT TURIGA AYLANDI.”**

yoki cholg'u) sur'ati hisoblanadi. Ba'zi xalqlarda u jozibali va boy, boshqalarda esa lo'nda va tejankor ko'rinishga ega bo'lib, kuyning ma'lum turi shu xalqning xarakteri, hayoti, tarixi hamda milliy ruhiga javob beradi. Raqslar musiqasi barcha xalqlarning ko'p asrlik ijodiyoti jarayonida bunyod etilgan yorqin milliy xarakteri va sifatlarini saralab oldi. Har bir xalqning raqs madaniyati nihoyatda boy va turfadir. Raqslar san'ati musiqa bilan uzviy bog'liqdir, xalq raqslarida ritm nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbek raqslari mazmunini ifoda etishda ijrochilar qarsak, qayroq va zangdan foydalanadilar, ba'zi raqslar esa ro'mol, piyola va boshqa buyumlar bilan ijro etiladi. Aynan raqs musiqasining yorqin milliy xarakteri azaldan kompozitorlarni o'ziga jalb etgan. Xalq raqslari bir qancha buyuk klassik kompozitorlar asarlarining asosini tashkil etdi. O'z navbatida bu kompozitorlar sermahsul ijodlarida musiqiy matnni bayon etish va rivojlantirish usullariga tayanganlar. Raqslar mu-

ing noyob boyligi - tengi yo'q, go'zal va nazokatli raqslari mavjud. O'zbek raqs san'ati nihoyatda rang-barang va turfa janrlar, shakllardan iborat bo'lib, o'zining ajoyib ijro jozibasini, yorqin ifodaviyligi, mazmuni va emotsional ta'sir kuchi bilan alohida ajralib turadi. Raqslar san'ati doimiy ravishda o'zgarib boruvchi, doimiy harakatdagi san'atdir. Xalq raqslarida milliy o'ziga xoslik, urf-odatlar, xalqning dunyoqarashi, badiiy tafakkuri, milliy ruhi o'z ifodasini topadi. O'zbek milliy raqs san'ati namunalarini hozirgi kunda ham o'zining badiiy estetik ahamiyatini saqlab kelmoqda.

**Adiba Fayzullayeva,**  
“San'atshunoslik”  
ta'lim yo'nalishi  
2-kurs talabasi

# OSHUFTA MUHABBAT QISMATI

Tolstoyning 70-yillar ijodida "Anna Karenina" romani alohida mavqega ega. "Urush va tinchlik"dan bu romanni yozguniga qadar bo'lgan davrda Tolstoyning rus jamiyatidagi ijtimoiy tenglik va adolat to'g'risidagi orzu-umidlari ro'yobga chiqmadi. 60-yillardagi islohot yozuvchi kutgan natijani bermadi. Mazkur romanda Tolstoyning jamiyat hayotida kechayotgan noxush jarayonlar haqidagi iztirobli o'ylari aks etdi.

Jamiyatda yuqori mavqega ega bo'lgan xonadon bekasi qalbidagi kemtiklikni muhabbatdan izlaydi. Unga o'sha muhabbat nasib ham bo'ladi. Xo'sh, Anna nega unda atrofidagi mayda muammolardan qat'i nazar, mehr-mu-

habbatdan sarmast bo'lishi kerak bo'lgan pallada o'ziga so'nggi chora – o'limni ravo ko'rdi? Vronskiy-chi? U Annaning vasliga erishgach, qalbi daryo, muhabbati yo'lida sobit ayolga hamisha yana nimadir yetishmayotganini anglashi, his qilishi qiyinmidi? Darhaqiqat, Lev Tolstoy bu asari haqida "Anna Karenina – men o'zim", deb aytadi. Anna timsoli orqali yozuvchi hayot-mamot, inson taqdiri, yashashdan maqsad, odamzodning ma'naviy kamoloti, kabilarga o'zining haqqoniy va samimiy munosabatini bildiradi.

Taqdir Anna va Vronskiyning uchrashirguncha oilaviy hayot odatdagidek davom etardi. Tasodifiy uchrashuv uning butun taqdirini o'zgartiradi. Qahramonlar bir-birlarini sevib qolishadi, lekin Anna his-tuyg'ularga berilishni istamaydi va Sankt-Peterburgga, erining yoniga qaytadi. Vronskiy uni har joyda ta'qib qiladi va oxir-oqibat Annaning marhamatiga sazovor bo'ladi. Anna Vronskiyning mulozamatini qabul qiladi, lekin haqiqiy hayot qahramonlar tasavvur qilgan ertak kabi emasligi ma'lum bo'ldi.

Romanda keltirilgan Kareninlar, Oblonskiylar va Levinlardan iborat uchta katta oilaning turmush tarzi, ularni bog'lagan rishtalar, qahramonlardagi e'tiqod masalasi, Vronskiyning Annaga yoki Annani Vronskiyga tomon talpin-tirgan kuch, nihoyat, Annaning halokatli o'limi tasvirlarini o'qirgan, kitobx-

on o'zini beixtiyor Tolstoyga yaqindek, Tolstoyga hamfikirdek, balki Tolstoy qalbini o'qiyotgandek his etadi.

Oilaviy muammolar qarimasligiga, eskirmasligiga kitobning boshidan amin bo'lasiz. Xiyonatni birgina xat oshkora qilib qo'yishi... Istalgan zamonda-gi o'quvchini kitobga qiziqtirib qo'yish uchun ajoyib kirish. Asarni oxiriga kelib bemalol ayta olamanki, "Inson tuyg'ularini o'zi jilovlay olmaydi, uni faqatgina "E'tiqodi" "U Zot o'rnatgan hukmlar chegarasidan o'tib ketishdan qo'rquv"gina jilovlashi mumkin".

**Begzod Turmamatov,**  
"San'atshunoslik" ta'lim yo'nalishi  
3-kurs talabasi

Shuhratparast, mansabparast kishining yuragida hech nima yo'q. Balandparvoz mulohazalar, ma'rifat va ma'rifatga bo'lgan sevgisi, din-diyonat bularning hammasi baland martabaga erishish yo'lidagi quroldir, xolos. (269-bet)

Ustunlik hamma vaqt chinakam ta'lim tomonda bo'lishi kerak. (497-bet)

Vazifa – huquq va boylikning jo'ra-si; hokimiyat — pul, sharaf demakdir. (501-bet)

Qachonki inson o'zini unutsa-yu, boshqalarga mehr qo'ysa, shunda uning darrov orom topishi, baxtli va dilovar bo'lishi mumkinligi isbotlanadi. (292-bet)

# HAYOT DARYOSIDAN ERTANGI UMIDGA

Har bir xalq o'z yuragidan chiqqan, dardini, orzusini, umidini so'z bilan ifodalab beruvchi shoiraga ega. O'zbek xalqining bunday samimiy, mehrga to'la ovoz - Halima Xudoyberdiyeva. Uning "Enadaryo" kitobi hayot, ona, ayol va vatan tuyg'ularining tiniq, hayotiy ifodasidir. Bu asar inson qalbining eng nozik torlarini chertadi, hayotning shodligini va ayol qalbining qudratini o'zida mujassam etadi. Men bu kitobni ilk bor otamning sovg'asi sifatida qo'limga olganman. "Enadaryo" kitobi men uchun oddiy she'rlar to'plami emas — u hayotning o'zi, mehr manbai, onalik va insoniylik daryosi. Shoiraning satrlarida ona mehrining harorati, ayollik iftixori va hayotning abadiy

oqimi sezilib turadi. Menga Halima Xudoyberdiyevaning "Ertaga" nomli she'ri juda yoqadi. Bu she'rda shoira umid, ishonch va kelajakka bo'lgan mehrni kuylaydi. U insonni hech qachon taslim bo'lmaslikka, har kuni yangicha hayot boshlashga chorlaydi.

"Ertaga" she'rida inson qalbining eng pok tilaklari — yaxshilik, mehr va orzular mujassam. Shoira she'rlarida yana ko'plab sevgi-sadoqat, mehr va muruvvat tuyg'ularini tarannum etarkan, ular orqali o'zbek xotin-qizlarining orzu va armonlarini izhor qiladi va ayni paytda lirik qahramon o'y-xayollarini, uning ichki kechinmalarini yorqin ifodalaydi. Bu bilan u zamon-doshlarida ayollarga nisbatan hurmat va muhabbat hislarini uchquntirishga intiladi.

Ertaga  
Ertaga dil nurga to'lar,  
Shod ko'ngil huzurga to'lar,  
Quchoq, bilg'il, gulga to'lar  
Xazonga taslim bo'lmasa.

Ertaga  
Ishq mehr iyar,  
Ranj sukutda diydor tuyar,  
Sog'inch yangi sarpo kiyar  
Hijronga taslim bo'lmasa.

Ertaga  
Neki so'rading,  
Bo'lg'usi hosil muroding,  
Chin, hazil aro imdoding  
Yolg'onga taslim bo'lmasa.

Ertaga  
Bugun ko'chmagay,  
Bugundan yupun ko'chmagay,  
Yechilmas tugun ko'chmagay  
Armongaa taslim bo'lmasa.

Halima Xudoyberdiyevaning butun ijodi ayol qalbining sadoqatli ovozi, ona mehrining daryosidir. Uning ko'plab she'rlari xorijiy tillarga tarjima qilingan. Uning she'rlari bugungi yoshlarni ham hayotga muhabbat bilan qarashga, Vatanni va insonni sevishga undaydi.

**Mahliyo Abduhamidova,**  
"San'atshunoslik"  
ta'lim yo'nalishi  
1-kurs talabasi



**KO'RINMAS**

Dard joningdan o'tganda,  
Beldan quvvat ketganda,  
So'ngi nafas yetganda  
Dunyo ko'zga ko'rinmas.  
Yor-u do'st oshnolar,  
Qalam qoshli zebolar,  
Topilgan mulk-dunyolar,  
Aslo ko'zga ko'rinmas.  
Aqling qilolsa fikr,  
Allohni etgin zikr,  
Ajral qilmaydi sabr,  
Dunyo ko'zga ko'rinmas.  
Bir umrlik armon ham,  
Go'zal mohitobon ham.  
Dardga bo'lolmas malham,  
Ziyo ko'zga ko'rinmas.

**Adiba Fayzullayeva,**  
"San'atshunoslik" ta'lim yo'nalishi  
2-kurs talabasi

**TAHRIR HAY'ATI**

Nozim Qosimov  
Hulkar Hamroyeva  
Matluba Murodova  
Po'lat Tashkenbayev  
To'maris A'zam  
Shahzoda Xudoynazarova  
Gulasal Usmonova  
Hamidjon Ro'ziboyev

**BOSH MUHARRIR:**

Shuxrat TOXTASINOV

**BIZNING MANZIL:**

100031, Toshkent shahri,  
Yakkasaroy tumani,  
Yusuf Xos Hojib ko'chasi,  
103-uy.

**NASHR UCHUN MAS'UL**

Durdona Ubaydullayeva

Gazeta 2018-yil 4-dekabrda O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi tomonidan 1002-raqam bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.

Nashr indeksi: 145  
Ofset usulida bosildi.  
Qog'oz bichimi A-3

Bosishga topshirish vaqti:  
19:00  
Bosishga topshirildi: 21:25  
Adadi: 200  
Bahosi kelishgan narxda.

**SAHIFALOVCHI:**

Jurobek XIDIROV

Gazeta tahririyat kompyuterida terildi va sahifalandi.

"Niso nashriyot va matbaa uyi" mchj bosmaxonasida bosildi.  
Manzil: Toshkent viloyati,  
O'rta Chirchiq tumani,  
Mash'al mahallasi,  
Markaziy ko'cha, 1-uy.

Buyurtma: 413  
Hajmi 1 bosma taboq.